

## VOLEYBOL VOSITALARI YORDAMIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARINING JISMONIY SIFATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Xudayberganov Otabek Erkinovich

Urganch davlat universiteti “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrasiga katta o‘qituvchisi, p.f.b.f.d. (pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori) (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7029204>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada voleybol vositalari yordamida talabalarning jismoniy sifatlarini variativ tizimi asosida takomillashtirish mexanizmi V blokdan iborat. Bloklarda talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantiruvchi mashqlar, ularni qo‘llash uslubiyati, vazifalari, ta’sir yo‘nalishi hamda nomoyon bo‘lish shakillari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zları:** mexanizm, model, tezkor harakatlari, takroriy mashq usuli, bazaviy chidamkorlik, dinamik va statik yo‘nalishlari, voleybol, jismoniy sifatlar.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ВОЛЕЙБОЛЬНОГО ИНВЕНТАРЯ

**Аннотация.** В данной статье механизм совершенствования физических качеств студентов с использованием волейбольных снарядов на основе вариативной системы состоит из блока V. Блоки охватывают упражнения, развивающие физические качества студентов, их применение, методы, задачи, области воздействия и формы проявления.

**Ключевые слова:** механизм, модель, быстрые движения, повторный метод тренировки, базовая выносливость, динамическая и статическая направленность, волейбол, физические качества.

## IMPROVING THE PHYSICAL QUALITIES OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS SPECIALISTS USING VOLLEYBALL EQUIPMENT

**Abstract.** In this article, the mechanism of improving the physical qualities of students using volleyball tools on the basis of a variable system consists of five blocks. The blocks cover exercises that develop students` physical qualities, their methods of use application, aims, tendency of influence and forms of manifestation.

**Keywords:** mechanism, model, rapid movements, repeated training method, basic endurance, dynamic and static directions, volleyball, physical qualities.

### KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Dunyoning turli davlatlarida jismoniy tarbiya mutaxassislarini oliy ta’lim muassasalarini tizimida tayyorlashda ta’lim jarayonini nazariy va uslubiy-texnologik ta’minalash yo‘llarini aniqlash bilan bog‘liq bo‘lgan umumiyy vazifalarni hal etishga harakat qilinmoqda. Jismoniy tarbiya ta’lim tizimiga raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash bo‘yicha samarali innovatsion o‘quv dastur va texnologiyalarni yaratish zaruratini belgilab beradi.

Respublikamizda ta’lim tizimi sohasida yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlashda ularning asosiy kasbiy faoliyati turlari tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy yutuqlarni amaliyatga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish vazifalari ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi «O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi. PF – 5924-sod Farmonida sport ta’limi muassasalarida trener va mutaxassislarning sifat tarkibini, xususan oliy ma’lumotli xodimlar

sonini bosqichma-bosqich oshirish vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi pedagogika oliv ta'lim muassasalarida kasbiy tayyorlash jarayonini takomillashtirish, bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarida sport ixtisosligi vositalari orqali kasbiy tayyorgarlikni samarali shakllantirishning ilmiy asoslangan yo'llarini izlab topishni talab qiladi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining jismoniy sifatlarini egallashi ularda kasb bo'yicha real jismoniy tarbiya va sport faoliyati sharoitlarida amaliyatga yo'naltirilgan vazifalarni unumli hal etishga tayyorlikni namoyon qiladi.

### **TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

#### **Mavzuning maqsad va vazifalari.**

Voleybol vositalari yordamida jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining jismoniy sifatlarini shakllantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarining jismoniy sifatlarining shakllanish uchun voleybol sport turiga xos vosita va usullarni o'rgatishga qaratilgan yangi variativ tizimni ishlab chiqish. Talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantiruvchi mashqlar, ularni qo'llash uslubiyati, vazifalari, ta'sir yo'nalishi hamda nomoyon bo'lish shakillari, bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarining voleybol mashg'ulotlarida o'zgaruvchan harakat yo'nalishlarini inobatga oлган holda mushaklarning kuchlanishi va unda qisqa muddat ichida mexanik faollikni oshirishga qaratilgan murakkab reaksiyani tarbiyalash uchun tezkorlik modelini ishlab chiqish. Talabalarning kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uchun dam olish oraliqlarini rejalashtirishda organizmning to'liq tiklanish imkoniyatidan kelib chiqib dinamik va statik faoliyatda voleybol texnik usullariga o'xhash bo'lgan vositalarni izotonik va yon beruvchi tartibda (tashqi qarshilikni chegara darajasigacha oshirish) qo'llash hisobiga harakat sifatlarini shakllantirish (1-jadval);

*1-jadval*

#### **VOLEYBOL VOSITALARI YORDAMIDA TALABALARING JISMONIY SIFATLARINI VARIATIV TIZIM ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMII**

MASHQLAR	USLUBIYATI	VAZIFALARI	TA'SIR YO'NALISHI	NOMOYON BO'LISH SHAKLLARI
<b>I BLOK. TEZKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MODELI</b>				
1.Ko'ish signaliga ko'ra turli dastlabki holatlardan harakat yo'nalishlarini tez o'zgartirib yugurishlar.	1.Takroriy mashq usuli. Bu usul tezkorlik, kuch va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishda qo'llanilib, bunda dam olish oraliqlari organizmning to'liq tiklanishiga imkoniyat yaratishi zarur.	1.Oddiy va murakkab reaksiyalarni rivojlantirish.	1.Retseptorda qo'zg'alishning paydo bo'lishi.	1.To'jni ko'ish. 2.To'pnинг yo'nalishimi va uchish tezligini baholash.
2.Yonlamacha turgan holda qisqa masofalarga (5,10,15 metr) tez yugurishlar.	2.Oraliq usubi. Bu usul asosan tezkorlik va kuch chidamkorligini tarbiyalashda qo'llaniladi. Dam olish oraliq'i odatda katta bo'lmaydi.	2.Tezkor harakatlar sharoitida eng ko'p kuch namoyon qilish qobiliyatini (tezkorlik - kuch qobiliyatlarini) tarbiyalash.	2.Qo'zg'alishni markaziy asab tolasiga uzatish. 3.Qo'zg'alishni asab yo'llari bo'ylab o'tib borishi va effektor signal hosil bo'lishi.	3.Bajariladigan amal rejasini tanlash.
3.Oldinga va orqaga signal bo'yicha qisqa masofalarga tez yugurishlar.			4.Signalning markaziy asab tolasidan mushakka o'tkazilishi.	4.Bu rejani ro'yobga chiqara boshlash.
4.Tezkorlikni talab etuvchi estafetalar.			5.Mushakning qo'zg'alishi va unda mexanik faollikning paydo bo'lishi.	
5.Turli ishora va vaziyatni faxmlash tezligi (jamoadosh yoki bir necha harakatlarning ishorasi, o'yin vaziyatini o'rgatish va uni baholash. Raqib o'yinchisining joylashishi va hokazo). Ushbu vaziyatdarga nisbatan tezkor va maqsadga muvofiq harakat qilish.				
6.Turli harakatlarni ko'p martalab ijro etish tezligi.				

Активация Windows  
Чтобы активировать Windo, раздел Параметры".

Tezkorlikni rivojlantirish modeliga oddiy va murakkab reaksiyalarni rivojlantirish. Tezkor harakatlar sharoitida eng ko‘p kuch namoyon qilish qobiliyatini (tezkorlik – kuch qobiliyatlarini) tarbiyalash, mushakning qo‘zg‘alishi va unda mexanik faollikning paydo bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadi. Tezkorlik sifatini rivojlantirish orqali to‘pni ko‘rish, to‘pning yo‘nalishini va uning uchish tezligini baxolash, bajariladigan amal rejasini tanlash, bu rejani ro‘yobga chiqarish orqali ko‘rish va baxolash shakillari nomoyon bo‘lgan.

## II BLOK. KUCH SIFATINI RIVOJLANTIRISH MODELI

1.Kaft va panjalarni sherikning qarshiligini engib (yoki gantellar bilan) bukib yozish mashqlari	1.Takroniy mashq usuli. Bu usul tezkorlik, kuch va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishda qo‘llanilib, bunda dam olish oraliglari organizmning to‘liq tiklanishiga imkoniyat yaratishi zarur.	1.Chegaraga yaqin bo‘lmagan og‘irliklarni (qarshiliklarni) engishni chegara darajasida ko‘p marotaba takrorlash.	1.Mushaklar hajmini maromida rivojlantirish uchun.	1.O‘z uzunliklarini o‘zgartirmay (statik, izometrik).
2.Turli og‘irlikdagi to‘ldirma to‘plami iring‘itishda asosiy et‘ibor qo‘l harakatlariga qaratiladi.	2.Oraliq uslubi. Bu usul asosan tezkorlik va kuch chidamkorligini tarbiyalashda qo‘llaniladi. Dam olish oralig‘i odatda katta bo‘lmaydi.	2.Tashqi qarshilikni oshirish (dinamik va statik faoliyatlarda).	2.Mushaklar hajmini keskin ko‘paytirish uchun.	2.O‘z uzunliklarini qisqartirib (qarshiliklarni enguvchi, miometrik).
3.Qo‘llarga tayanib yotgan holda ulami bukib – yozish, yerdan uzib chapak chalish mashqlari.	3.Qarshiliklarni chegara darajadagi tezlik bilan engish.	3.Qarshiliklarni chegara darajadagi tezlik bilan engish.	3.Uzayib (yon beruvchi pliometrik).	
4.Amortizerli jihozlamni cho‘zish bilan boradigan, tuzilishi bo‘yicha texnik usullarga o‘xshash mashqlarni bajarish.	4.Maksimal mushak kuchi darajasini (kuch qobiliyatlarining o‘zini) oshirish			
5.Og‘irliklar (shtanga lappagi, gantellar, qum to‘ldirilgan qopchalar) bilan gavdaning aylanma harakatlari mashqlari.				
6.Shtangani ko‘krakka ko‘tanib o‘tirib - turish mashqlari.				
7.Shtangani elkaga olib sakrashlar. Og‘irlik maksimalning 50% hajmida.				
8.Arg‘amchi bilan sakrashlar.				
9.Joydan va yugrib kelib yuqoriga ilib qo‘yilgan predmetga qo‘l tekkizish yoki olish.				
10.Bir va ikki oyoqda uzunlikka sakrashlar.				
11.To‘siqlar ustidan ko‘p sakrashlar.				
12.Chuqurlikka sakrashlar.				

Активация Windows  
Чтобы активировать Windo  
раздел "Параметры".

Kuch sifatini rivojlantirish modelidagi chegaraga yaqin bo‘lmagan og‘irliklarni (qarshiliklarni) engishni chegara darajasida ko‘p marotaba takrorlash, tashqi qarshilikni chegara darajagacha oshirish (dinamik va statik faoliyatlarda), qarshiliklarni chegara darajadagi tezlik bilan engish, maksimal mushak kuchi darajasini (kuch qobiliyatlarining o‘zini) oshirish vazifalari amalda qo‘llanilishi natijasida mushaklar xajmini maromida rivojlantirish, mushaklar hajmini keskin ko‘paytirishga tasir ko‘rsatadi. Nomoyon bo‘lishi quyidagicha: o‘z uzunliklarini o‘zgartirmay (statik, izometrik), o‘z uzunliklarini qisqartirib (qarshiliklarni enguvchi, miometrik), uzayish (yon beruvchi pliometrik) kabi shakllari takomillashib boradi.

Chaqgonlik sifatini rivojlantirish modelidagi chaqqonlikni tarbiyalash koordinatsion jihatdan murakkab harakatlarni o‘zlashtirib olish, harakat faoliyatini to‘satdan o‘zgargan sharoit talablariga muvofiq ravishda qayta qurish qobiliyatini tarbiyalashdan iborat. Bunda muvozanat saqlash, galma – gal zo‘r berish va bo‘shashtirish harakatlarini tanlab yo‘naltirish kabi

vazifalarini amalda qo'llash natijasida, asab, mushak, harakat muvofiqligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chaqqonlik faqat sharoitning kutilmagan va og'irlashgan vaziyatlarda, insondan bunday vaziyatlarda tez, aniq harakat kutilayotgan, to'satdan va oldindan aytib bo'lmaydigan xollarda nomoyon bo'ladi.

III BLOK. CHAQQONLIKNI RIVOJLANTIRISH MODELI				
1.Bir va ko'p marotaba oldinga va orqaga o'mbaloq oshishlar. Xuddi shu mashq ayrim texnik usullari bajargandan so'ng.	1.Shug'ullanuvchilaming harakat tajribasini harakat koordinatsiyasi shakllarini yangi shakllar bilan to'ldirib borish.	1.Chaqqonlikni tarbiyalash	1. Asab muvofiqliliqi.	1. Chaqqonlik faqat sharoitning kutilmagan va og'irlashgan vaziyatlarda, insonda bunday vaziyatlarda tez, aniq harakat kutilayotgan, to'satdan va oldindan aytib bo'lmaydigan hollarda nomoyon bo'ladi.
2.Turgan joydan va yug'irib kelib 180, 200, 380 ga burilib bir va ko'p marotaba sakrashlar. Burilishlar bilan turli texnik harakatlarni bajarish.	2.Odatiy harakatlarni bajarishda g'ayrioddiylik omillarini kiritish.	2. Murakkab harakatlarni o'zlashtirib olish, harakat faoliyatini	2. Mushak muvofiqliliqi.	
3.Turli bug'imlar orasidan va ustidan o'tib harakatlanishlar.	3.Harakatning ma'lum parametrlariga qat'iy me'yorlangan o'zgarishlarni kiritish.	3. Harakatning to'satdan o'zgargan sharoit talablariga me'yorlangan o'zgarishlarni kiritish.	3. Harakat muvofiqliliqi.	
4.Gimnastika ko'rikchasiidan depsinib havoda turli harakatlarni bajarib sakrashlar.	4.Harakat amalini bajarishni usulini o'zgartirish.	4. Harakat amalini bajarishni tarbiyalashdan iborat.		
5.To'siqlar osha estafetalar.	5.Odatiy harakatlarni g'ayrioddiy uyg'unlikda bajarish yo'li bilan yangi koordinatsion talablarini kiritish.	5. Bunda muvozanat saqlash, galma-gal zo'r berish va bo'shashtirish harakatlarini tanlab takomilashtirish muhim ahamiyatga ega.		
6.Turli signal va ta'sirlarga belgilangan harakatlar bilan javob berish. Signallar va ta'sirlar sekin - asta ko'paytirib boriladi.	6.Harakatlar koordinatsining odatiy shakllarini o'zgartirishga majburlovchi tashqi sharoitlarning o'zgarishi.	7.Unimsiz mushak kuchlanishini engib olish.		
	7.Belgilangan sharoitlarda amallarni takrorlash mashqlari.	8.Belgilangan sharoitlarda amallarni takrorlash mashqlari.		

Активация Windows

Нажмите на изображение Windows

Maxsus chidamlilikni tarbiyalashda o'zgaruvchan xarakterdagi ishlarni bajarish kabi usullarini qo'llash orqali maxsus chidamlilik sifati rivojlanadi. Maxsus chidamlilikni rivojlantirish, kislorod iste'mol qilishning maksimal darajasini oshirish, shu darajani uzoq vaqtgacha saqlab turish qobiliyatini rivojlantirish, nafas olish jarayonlarining maksimal miqdorgacha tezroq etishini ta'minlashda nomoyon bo'ladi.

### MUHOKAMA

Maxsus egiluvchanlikni rivojlantirish modeliga egiluvchanlikni har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun turli harakatlarni kerakli amplituda bilan tayanch-harakat apparati ruxsati orqali hamma yo'nalishlarda bajarish, egiluvchanlikning rivojlanish darajasini oshirishda aniq faoliyatning (kasbga xos, sport bo'yicha) talablariga mos kelish, inson yoshining turli bosqichlaridagi egiluvchanlikning ushlab turish darjasini, kasallik, lat eyish va boshqa sabablarga ko'ra yo'qotilgan egiluvchanlikni tiklash kabi vazifalar qo'yiladi. Talabalarda egiluvchanlikni rivojlantirishda qo'llanilgan vosita va usullar dinamik va sitatik holatlarga ijobiy

ta'sir ko'rsatadi. Egiluvchanlikning ikki turi farqlanadi: faol va sust egiluvchanlik. Faol egiluvchanlik kishining o'z mushaklari kuch berishi hisobiga nomoyon bo'ladi. Sust egiluvchanlik gavdaning harakatlanayotgan qismiga tashqi kuchlar – og'irlik kuchi, sherikning qarshiliği va shu kabi kuchlardan foydalanganda nomoyon bo'ladi.

## IV BLOK. MAXSUS CHIDAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MODELI

1.15-20 soniya davomida sakrashlar. Birinchi urinishda maksimal darajada ko'p sakrash. Ikkinci urinishda maksimal darajada balandroq sakrash. 4-5- seriylarda 1-1,5 daqqa davomida to'xtovsiz sakrash. Ushbu mashqni arg'amchilar bilan ham bajarish mumkin.	1.Bazaviy chidamkorlikni tarbiyalash uchun bir tekis uzoq muddati yug'ish.	Anaerob imkoniyatlarni oshirish usubiyati.	1. Ishning shiddati mashq uchun tanlangan masofaring uzunligi bilan belgilanadi. Siljish tezligi mazkur masofadagi chegara tezlikka yaqnin (chegara tezlikning 90-95%) bo'lishi kerak.	1.Kislorod iste'mol qilishning maksimal darajasini oshirish.
2.Pastki turish holatidan 1-1,5 daqqa davomida turli yo'nalishlarda harakatlanishlar. 3-4- seriylarda 2-5 kg og'irliklar bilan.	2.Maxsus chidamkorlikni tarbiyalashda o'zgaruvchan xarakterdagisi ishlami bajarish.	1.Fosfokreatin mexanizmining funksional imkoniyatlarini oshirish.	2.Dam olish oraliqlari glikolitik jarayonlar dinamikasi bilan belgilanadi. Dam olish oraliqlarini sekin – asta kamayib boradigan qilish kerak. Masalan, 1 va 2- takrorlash oraliq'ida 5-8 daqqa, 2 va 3-sida 3-4 daqqa, 3 va 4-sida esa 2-3 daqqa.	2.Shu darajani uzoq vaqtgacha saqlab turish qobiliyatini rivojlantrish.
3.Hujum zarbasi va to'siqni taqlib qilib, orqa zonalarda do'mbaloq oshishni navbatlashtinib bajarish. Har bir texnik usulni 10 marotabadan bajarish.		2.Glikolitik mexanizmini takomilla shirish. Vosita sifatida, odatda, tegishli shiddatli siklik mashqlardan foydalaniladi.	3.Nafas olish jarayonlarining maksimal miqdorgacha tezroq etishini ta'minlash.	
4.Turli harakatlanishlar bilan estafetalar o'tkazish.			3.Bunday holda dam olish oraliqlarini boshqa ish turli bilan to'dirish kerak emas. Faqat batamom harakatsiz qolmasligi lozim.	
5.Turli yo'nalish va masofalarga "mokisimon yug'inishlar".			4.Dam olish oraliqlari kamayib boruvchi faoliyatda takrorlashlar soni, charchoq tez ortib borgani sababli, uncha ko'p bo'lmaydi (3-4 tadan ko'p emas). Seriylar oraliq'ida dam olish vaqtini kamida 15-20 daqqa bo'lishi kerak.	
6. 2x2, 3x3, 4x4 tarkibida o'quv o'yinlari.				Активация Win Чтобы активировать раздел "Параметры"

## V BLOK. MAXSUS EGILUVCHANLIKNI RIVOJLANTIRISH MODELI

1.Sherikning qarshilagini engib bajariladigan cho'zilish mashqlari.	1.Egiluvchanlikni rivojlantirishning asosiy usuli takrorlash ya'ni mashqlari bajariladi va dam olib, yana bajariladi. Shu holatni ma'lum oraliqda takrorlash ishchanlik qibiliyatini tiklash uchun xizmat qiladi. Bu usulning turli variantlari bor: dinamik mashqlami takrorlash usuli va statik mashqlami qaytarish usuli.	1. Egiluvchanlikni har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun turli harakatlami kerakli amplituda bilan tayanch-harakat apparati ruxsati orqali hamma yo'nalishlarda bajarish.	1.Dinamik. 2.Statik.	1.Egiluvchanlikning ikki tuni farqlanadi: faol va sust egiluvchanlik.
2.Gimnastika halqlarida tebranish va aylanma harakatlar.	2.Egiluvchanlikni rivojlantirishning aralash usuli. Ulardan biri sust mushak cho'zilishining dastlabki usuli bo'lib, faol statik kuchlanishni kamaytiradi (bo'shashtinish) va keyinchalik cho'zadi.	2.Egiluvchanlikning rivojlanish darajasini oshirishda aniq faoliyatning (kasbga xos, sport bo'yicha) talablariga mos kelish.	3.Inson yoshining turli bosqichlaridagi egiluvchanlikning ushlab tunsh darajasi.	Faol egiluvchanlik kishining o'z mushaklari kuch berishi hisobiga nomoyon bo'ladi. Sust egiluvchanlik gavdaning harakatlanayotgan qismiga tashqi kuchlar – og'irlik kuchi, sherikning qarshiliği va shu kabi kuchlardan foydalanganda nomoyon bo'ladi.
3.Rezinka va prujinali amortizatorlar qarshilagini engib bajariladigan aylanma (qo'l va oyoqlar uchun) harakatlar.	3.Inson yoshining turli bosqichlaridagi egiluvchanlikning ushlab tunsh darajasi.	4.Kasallik, lat eyish va boshqa sabablarga ko'ra yo'qotilan egiluvchanlikni tiklash.		Sust egiluvchanlik gavdaning harakatlanayotgan qismiga tashqi kuchlar – og'irlik kuchi, sherikning qarshiliği va shu kabi kuchlardan foydalanganda nomoyon bo'ladi.

## XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida jismoniy sifatlarini shakllantirish masalalariga alohida ahamiyat berilgan: ular mazmun

minimumi darajasida ham, ularning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar darajasida ham alohida blokka ajratilgan. Voleybol vositalari yordamida bo‘lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarining jismoniy sifatlarini shakllantirish uslubiyatini sinovdan o‘tkazish natijasida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning jismoniy sifatlarini shakllanganlik darajasida ijobiy o‘zgarishlar aniqlangan. Shuningdek, ishlab chiqilgan uslubiyatning samaradorligi nazariy jihatdan asoslangan va amalda tasdiqlandi.

## REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги “Ўзбекистон Республикасида Жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5924-сон фармони.
2. Алексеенко О.И., Даниленко Т. В., Кирий Е. В. Проблемы обучения и воспитания студентов в современном вузе. // Современное педагогическое образование. №3. - 2018.
3. Андреева С.Н., Люлина Н. В. Основная цель физического воспитания студентов вывсших учебных заведениях. //Физическое воспитание, спорт, физическая реабилитация и рекреация: Проблемы и перспективы развития. Материалы VII Международной электронной научно-практической конференции. Красноярск. -2017.
4. Белых С.И. Теоретические и методические основы профессиональной подготовки будущих преподавателей физической культуры и спорта в личностно ориентированной системе физического воспитания. - Донецк, 2020.
5. Худайбердиева Н.А. Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида педагог кадрлар тизимини бошқаришда инновацион фаолиятни ривожлантириш механизмини яратиш. –Т: Илмий техника ахбороти – пресс нашиёти, 2018.